

## XII. DEMOGRAFIK HOLAT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yilning 1-yanvar holatiga viloyatning doimiy aholisining soni 1507,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 31,9 ming kishiga yoki 2,2 foizga ko'paydi. Shundan, 707,3 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 46,9 %) va 800,1 ming kishi – qishloq joylarida (53,1 %) istiqomat qiladi.



**Jizzax viloyatining hududlari  
bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot**  
(2024 yilning 1-yanvar holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foizda			Doimiy aholi sonining viloyatda ulushi, foizda		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq		shahar	qishloq
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1507,4</b>	<b>707,3</b>	<b>800,1</b>	<b>102,2</b>	<b>102,2</b>	<b>102,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shahar:</i>									
Jizzax	195,8	195,8	0,0	102,2	102,2	0,0	13,0	27,7	0,0
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	48,7	16,8	31,9	101,2	101,2	101,3	3,2	2,4	4,0
Baxmal	170,6	46,9	123,7	102,3	103,3	102,0	11,3	6,6	15,5
G'allaorol	186,9	65,1	121,8	102,2	102,0	102,3	12,4	9,2	15,2
Sharof Rashidov	243,1	96,7	146,4	102,7	102,7	102,7	16,1	13,7	18,3
Do'stlik	70,0	29,5	40,5	101,7	101,4	102,0	4,6	4,2	5,1
Zomin	179,6	85,2	94,4	102,5	102,5	102,5	11,9	12,0	11,8
Zarbdor	94,6	52,3	42,3	102,2	102,1	102,2	6,3	7,4	5,3
Zafarobod	53,6	24,4	29,2	101,7	101,7	101,7	3,6	3,4	3,7
Mirzacho'l	55,4	31,0	24,4	101,7	101,6	101,7	3,7	4,4	3,0
Paxtakor	80,9	39,0	41,9	102,1	102,1	102,2	5,4	5,5	5,2
Forish	98,4	18,3	80,1	101,5	101,7	101,5	6,5	2,6	10,0
Yangiobod	29,8	6,3	23,5	101,0	100,0	101,3	2,0	0,9	2,9



Doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot  
(2024 yilning 1-yanvar holatiga)

Doimiy aholi soni

**1 507,4**  
ming kishi

Tabiiy o'sish

**+34,0**  
ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



**46,9 %**

Qishloq




**53,1 %**

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1-yanvar holatiga

Erkaklar


**50,5%**



**760,6** ming kishi

Ayollar

**49,5%**




**746,8** ming kishi

2024 yilning 1-yanvar holatiga viloyatning doimiy aholisi soni 1 507,4 ming kishini tashkil etib, shundan, 707,3 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 46,9 %) va 800,1 ming kishi – qishloq joylarida (53,1 %) istiqomat qiladi.



Viloyat doimiy aholisi soni tarkibida hududlar ulushi, % da  
(2024- yil 1-yanvar xolatiga)




Yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha aholining  
tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil
Tug'ilganlar	40 743	40 875	27,9	27,4
Vafot etganlar	6 784	6 841	4,6	4,6
<i>shu jumladan:</i>				
Nikohlar	12 716	11 863	8,7	8,0
Ajralishlar	1 730	1 679	1,2	1,1

**Tug'ilish.** 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 40 875 kishini tashkil etdi va 2022 yilning shu davriga (40 743 kishi) nisbatan 132 kishiga ko'paydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 27,4 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli ko'payishi Sharof Rashidov (28,6 promilledan 30,3 promillegacha), Baxmal (29,7 promilledan 31,2 promillegacha) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti**  
**2023- yilning yanvar-dekabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)**




**O‘lim.** 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni 6 841 kishini tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (6 784 kishi) nisbatan 57 kishiga ko‘paydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil qildi (2022 yil yanvar-dekabr 4,6 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyentining sezilarli o‘sishi Sharof Rashidov (3,7 dan 4,8 promillegacha), Zafarobod (4,6 dan 5,5 promillegacha) hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘lim darajasining eng past ko‘rsatkichi Paxtakor (4,6 promille), Forish (4,7 promille) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti**

2023- yilning yanvar-dekabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)




O'lganlar umumiy sonidan 50,9 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,8 foizi – o'sma kasalliklaridan, 8,5 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 5,8 foizi – ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 6,1 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 2,1 foizi – infeksiyon va parazitlar kasalliklaridan, 16,8 foizi – boshqa kasalliklardan vafot etgan.




**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**

(jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



**Nikohlar va ajralishlar.** 2023 yilning yanvar-dekabr oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 11 863 ta nikohlar va 1 679 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,0 ni (2022 yilning yanvar- dekabrda 8,7 bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,1 ni (2022 yilning yanvar- dekabrda 1,2 bo‘lgan) tashkil etgan.

**2023 -yilning yanvar-dekabr oyida viloyat bo‘yicha tuzilgan nikoh koeffitsiyenti**



Tuzilgan nikohlar soni 2022 yilning mos davriga nisbatan hududlarda kamayish kuzatilgan. Bunda eng yuqori kamayish sur'ati Yangiobod (5,4 %), Forish (3,0 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.




Hududlarda yanvar-dekabr oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(kishida)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>12 716</b>	<b>11 863</b>	<b>1 730</b>	<b>1 679</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 791	1 766	303	285
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	309	305	52	44
Baxmal	1 621	1 521	157	158
G'allaorol	1 620	1 561	232	196
Sharof Rashidov	1 988	1 830	248	265
Do'stlik	482	484	69	82
Zomin	1 702	1 442	196	190
Zarbdor	823	657	95	111
Zafarobod	459	379	63	57
Mirzacho'l	374	347	75	68
Paxtakor	627	618	127	104
Forish	698	719	83	80
Yangiobod	222	234	30	39

**Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti**  
(2023 yil yanvar-dekabr)



Ajrimlar sonini 2022 yilning mos davriga nisbatan kamayish kuzatilgan.

Ajrimlar sonini 2022 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'ati Sharof Rashidov (6,9 %), Do'stlik (18,8 %) tumanlarida kuzatilmoqda.



Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy oʻsishi  
soni va koeffitsiyenti

(kishi)

	<i>Kishi soni</i>		<i>1 000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>33 959</b>	<b>34 034</b>	<b>23,3</b>	<b>22,8</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	4 776	4 132	25,3	21,3
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	968	870	20,3	18,0
Baxmal	4 086	4 424	24,8	26,2
Gʻallaorol	4 214	4 438	23,3	24,0
Sharof Rashidov	5 817	6 134	24,9	25,6
Doʻstlik	1 381	1 387	20,2	20,0
Zomin	4 078	4 348	23,6	24,5
Zarbdor	2 238	2 191	24,5	23,4
Zafarobod	1 132	1 123	21,7	21,1
Mirzachoʻl	970	908	18	16,5
Paxtakor	1 833	1 750	23,3	21,9
Forish	1 958	1 853	20,3	19,0
Yangiobod	508	476	17,4	16,1

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6 307 kishi, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 8 427 kishini tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 2 120 kishi tashkil etgan, 2022 yilning mos davrida minus 1 867 kishi bo'lgan.



Yanvar-dekabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>6 631</b>	<b>6 307</b>	<b>8 498</b>	<b>8 427</b>	<b>-1 867</b>	<b>-2 120</b>
<i>shahar:</i>						
Jizzax	1 442	1 484	1 468	1 451	-26	33
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	171	167	380	389	-209	-222
Baxmal	302	336	907	842	-605	-506
G'allaorol	408	334	820	758	-412	-424
Sharof Rashidov	1 453	1 136	1 023	1 017	430	119
Do'stlik	271	326	540	586	-269	-260
Zomin	501	574	662	613	-161	-39
Zarbdor	435	341	464	497	-29	-156
Zafarobod	288	244	331	389	-43	-145
Mirzacho'l	464	509	477	509	-13	0
Paxtakor	532	485	592	560	-60	-75
Forish	219	263	608	608	-389	-345
Yangiobod	145	108	226	208	-81	-100

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal (minus 506 kishi), G'allaorol (minus 424 kishi) tumanlarida qayd etildi. Migratsiyaning ijobiy saldosini Sharof Rashidov tumani (119 kishi) va Jizzax shahrida (33 kishi) kuzatildi.